

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

BADIIY GRAFIKA, SAN'AT VA MEHNAT TA'LIMI FAKULTETI

UMUMTEXNIKA FANLARI KAFEDRASI

Aliyeva Feruza

**O'QUVCHILARGA MEHNAT TA'LIMI VA TARBIYA SI BERISHDA
MAKTAB, OILA VA MAHALLANING O'RNI**

«5142000-mehnat ta'limi» yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

dos. O.Eshniyozov

Bitiruv malakaviy ishi «Umumtexnika fanlari» kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014
yil “___” _____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma
№___).

Kafedra mudiri:

dots. O.Eshniyozov

Bitiruv malakaviy ishi YaDAK ning 2014 yil “___” _____dagi majlisida himoya
qilindi va ___ ball bilan baholandi (bayonnoma №___).

YaDAK raisi: _____

A'zolari:

Samarqand-2014

Mavzu: O'quvchilarga mehnat ta'limi va tarbiyasi berishda maktab, oila va mahallaning o'rni

Reja

Kirish

I-BOB. "O'quvchilarni tarbiyalashda oila, maxalla, maktab xamkorligi"

Konsepsiyasi

1.1. "O'quvchilarni tarbiyalashda oila, maxalla, maktab xamkorligi" Konsepsiyasi haqida umumiy tushunchalar

1.2. "O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida oilaning vazifalari

1.3. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida mahallaning vazifalari

1.4. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida maktabning vazifalari

II-BOB. Oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish tamoyillari, bosqichlari va mexanizmi

2.1. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari

2.2. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish mexanizmi

2.3. O'quvchilarni kasbga yo'llashda oila va maktab hamkorligini o'rganish

2.4. «Oila, mahalla, maktab hamkorligi samaradorligini oshirish» bo'yicha tavsiya

Xulosa

Ilovalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Tadqiqot dolzarbligi: Mustaqil Respublikamiz kelajagi, istiqboli, xalqimizning farovon turmushi, tinch-totuvligi, boshqa xalqlar bilan tengligi fan, texnika va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va madaniyatning rivojlanishi o'z navbatida ta'lim-tarbiya ishini qanday yo'lga qo'yilganligiga bog'liq bo'lganligi sababli u, respublikamizda davlat miqyosidagi ustivor soxa deb e'tirof etilgan. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, yuqorida keltirilgan vazifalarning samarali amalga oshishida "Oila, mahalla va maktab hamkorligi"ning o'rni beqiyosdir.

Ana shu masalani yaxshi anglagan yurtimiz rahbariyati, xususan, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 1993 yilda "O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasi ishlab chiqilib hayotga tadbqiq etildi. Shundan so'ng Konsepsiyada keltirilgan tadbqirlar yuzasidan qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Mamlakatimizda har yilning o'ziga xos nom bilan atalishi hamda ana shu yillarda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan qator tadbqir va ishlarning amalga oshirilib borilayotganligi, bu hamkorlikni shakllantirishga katta e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2008 yil 19 may 144-sonli, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining 2008 yil 26 may 01-502 sonli, O'zbekiston Oqsoqollar Kengashi "Mahalla" xayriya jamg'armasining 2008 yil 27 may 067/1-sonli QO'SHMA BUYRUQLARI Umumta'lim maktablarida "Oila, mahalla, maktab hamkorlik markazlari"ni tashkil etish haqida.

- Yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalar ishi birinchi navbatda oiladan boshlanadi. Bu borada barkamol avlodni tarbiyalashda ota-ona, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorlining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligini yanada rivojlantirish, o'quvchilarning huquqiy-ma'naviy bilim ko'nikmalarini mustahkamlash, davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkiliy-pedagogik ishlarni muvofiqlashtirish hamda "Yoshlar yili" Davlat dasturining 40-bandida barcha umuta'lim muassasalarida "Oila-

mahalla-maktab” hamkorlik markazlarini tashkil etish yuzasidan belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida qator tadbirlar belgilab berilib, ijrosini ta’minlash yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan edi.

Bunda quyidagi ishlarni amalga oshirish ko’zda tutilgan, umumiy o’rta ta’lim maktablarida tashkil etiladigan “Oila, mahalla, maktab hamkorlik markazi”ning namunaviy Nizomini tasdiqlash (Nizom bitiruv ishining paraframlarida keltiriladi). Qoraqolpog’iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari rahbarlari, Qoraqolpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri Xotin-qizlar qo’mitalari raislari hamda O’zbekiston Oqsoqollar Kengashi “Mahalla” jamg’armasining Qoraqolpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo’limi boshqaruvi raislari hamkorlikda:

- Ikki hafta muddatda, “Oila, mahalla, maktab hamkorlik markazi”ning namunaviy barcha umumta’lim muassasalariga yetkazish;

- 2008 yil 20 avgustga qadar barcha umumta’lim maktablarida “Oila, mahalla, maktab hamkorlik markazi”ni namunaviy nizom asosida tashkil etish;

- Har oy yakunlari bo’yicha umumta’lim maktablarida “Oila, mahalla, maktab hamkorlik markazi”ni tashkil etish yuzasidan olib borilayotgan ishlar haqidagi ma’lumotlarni tumanlar kesimida Xalq ta’limi vazirligining Ma’naviy-ahloqiy tarbiya boshqarmasiga taqdim etib borish;

- 2008 yil 1 sentyabrga qadar barcha umumta’lim maktablarida “Oila, mahalla, maktab hamkorlik markazlari”ning tashkil etilgani va o’rnatilgan tartibda jihozlanligi haqidagi yakuniy-tahliliy ma’lumotni Xalq ta’limi vazirligiga taqdim etish;

- “Oila, mahalla, maktab hamkorlik markazlari”ni barcha umumta’lim maktablari, tuman xalq ta’limi bo’limlarida tashkil etilishi ishlarini muvofiqlashtirish;

- Yilning har choragida olib borilayotgan ishlar haqidagi ma’lumotlarni tumanlar kesimida umumlashtirib, rahbariyatga kiritib borish.

Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyundagi 175-son Qarori "Oila-mahalla-ta’lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo’yicha chora-tadbirlari

ishlab chiqilib, ijrosini ta'minlash bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilgan edi (Chora-tadbirlar majmuasi ilova qilinadi).

Ushbu hamkorlikni amalda qo'llashda har bir bo'g'inga (oilalar, maktab, mahalla) alohida vazifalar yuklatilgan bo'lib, ular shu asosda faoliyat olib borishmoqda. Xususan, oilalar jamiyatining eng kichik yacheykasi, ta'lim-tarbiya buyurtmachisi sifatida bu hamkorlikda ko'proq manfaatdor hisoblanadi. Shuning uchun bu hamkorlikda oilaning roli haqida. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi XIV Oilalar bobbi 63-moddasida «Oilalar – jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega», 64-moddasida «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetkazgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar» va 66-moddasida «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxurlik qilishga majburdirlar» kabi huquqiy-pedagogik g'oyalar o'z ifodasini topgan. Mazkur g'oyalar mazmuni oilalar jamiyatining asosiy bo'g'iniligini, ota-onalarning farzandlari oldidagi burchi, vazifalari va nihoyat voyaga yetgan farzandlarning ota-onalarning oldidagi burchlari, mas'uliyati hamda vazifalari aniq belgilab berilgan.

Yuqorida rasman ta'kidlangan vazifalarning kamchiliklarsiz bajarish oilalar zimmasiga yuklatilgan. Ana shu mas'uliyat oilalar pedagogikasini pedagogika fanlari tizimining bir tarmog'i sifatida fan tarzida shakllanishiga asos bo'ldi. Kattaqatdan ham har birimizning sutkalar davomidagi turmush tarzimizning 4/3 qismi oilalar ulushiga to'g'ri keladi. Shu jihatdan oilalar ijtimoiy ta'lim-tarbiya muassasalari, mehnat jamoalariga nisbatan inson shaxsining shakllanishida beqiyos imkoniyatlarga egaligi ochiq ko'rinib turibdi. Bu imkoniyatlardan maqsadli foydalanish hozirgi davrning eng dolzarb muammosi deb izohlasak mubolag'a bo'lmas. Oilaning o'rnini birorta ijtimoiy ta'lim-tarbiya muassasasi bosa olmaydi ham. Shu nuqtai nazardan yondoshganda oilalar tarbiyasini nafaqat oilalarda ota-onalar emas, balki barcha kasbdagi mutaxassislar xususan, o'qituvchilik kasbi bilan shug'ullanadiganlar mukammal bilishlari shartligini hayotning o'zi taqozo qilmoqda. Chunki oilalar tarbiyasini takomillashtirmasdan jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy rivojlanishi va uning kelajagini ta'minlash mushkul.

Kurmatli Prezidentimiz I.A.Karimov oila tarbiyasining jamiyatdagi o'rnini va ahamiyati haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 5 yilligiga bag'ishlangan majlisdagi tabrik so'zi (1997 yil 7 dekabr)da «Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarini saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir» va yana O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida «Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini his etadi», - deb oila tarbiyasiga yuqori baho bergan edi.

Qadimgi Yunon faylasuflari Platon va Arastular bola tarbiyasini davlat ixtiyoriga qo'yib, bola tarbiyasi bilan shug'ullanish jamiyat va davlat manfaati uchun zarur va foydaliroq deb ta'kidlab, bu tarzdagi qarashlari bilan oila tarbiyasi ota-onalar gardonidan soqit qilgan bo'lsalar, Abu Ali ibn Sino buning aksini, ya'ni bola tarbiyasi bilan avvalo oila, ota-onalar shug'ullanmog'i lozim, degan pedagogik g'oyani ilgari suradi. Ibn Sino «Tadbir al-manzul» asarida tarbiyaning asosiy metodlarini sinab ko'rsatib «Agar oila bu tarbiya metodlaridan to'g'ri foydalana olsa, oiladagi bolalar hayotlarida o'z baxtlariga tez erishadilar», - degan g'oyani ifodalaydi. Demak, oila tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish ijtimoiy tarbiyani takomillashtirishning zarur sharti hisoblanadi. Oila pedagogikasini o'rganish bolalarni barkamol inson etib tarbiyalash O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosligini anglash har bir mutaxassis va ota-onalarning eng asosiy vazifasi bo'lmog'i darkor.

Buning uchun bo'lajak bakalavr va magistr darajasini oladigan yuqori malakali kadrlar oila tarbiyasining o'ziga xos milliy xususiyatlarini, oilaviy tabiiy bir ijtimoiy o'chog'iligi, shart-sharoitlari, muhiti, oila hayotini, ayniqsa bolalar turmush tarzini tashkil etish, ota-onalar va oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, o'yin, o'qish, mehnat faoliyatini samarali uyushtirish, ota-onalarning oilani boshqarishdagi hamkorligi hamda ota-onalarning tarbiya sohasidagi pedagogik madaniyatlari kabi yo'nalishlarda keng qamrovli bilimlarni o'zlashtirishlari shart.

Oila pedagogikasi Fani bo'lajak bakalavr, magistrlarga oila tarbiyasi haqida sharq mutafakkirlari va buyuk pedagoglarning g'oyalari, oila tarbiyasining ijtimoiy tarbiya bilan uzviy uyg'unligi, oila tarbiyasini takomillashtirish, ota-onalarning shaxsiy namunasi, obro'si, shaxsni oilada kamol toptirish, har soatdagi pedagogika (bolalarga ta'sir ko'rsatish usullari) hamda ota-onalarning pedagogik madaniyatini tarkib toptirish kabi ma'ruzalar bo'yicha atroflicha chuqur ma'lumot berishni va zaruriy pedagogik ko'nikma, malaka, mahoratni tarkib toptirishni nazarda tutadi. Shuning uchun oila pedagogikasini o'rganish, bilish va oila hayotiga tadbqiq etish, mutaxassislarning, ota-onalarning xohishi, irodasidan qat'iy nazar, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan obyektiv ijtimoiy zaruriy shartligini butun vujudimiz bilan his qilmog'imiz va shunga mos ish yuritmog'imiz darkor. Bularsiz oilani mustahkamlash, ma'naviy, barkamol insonni tarbiyalash va jamiyatni rivojlantirish mushkul.

Aytish mumkinki, yosh avlod tarbiyasida "Oila, mahalla va maktab hamkorligi" muhim ahamiyatga ega faoliyat hisoblanadi.

Tadqiqot ishi mavzusi: O'quvchilarga mehnat ta'limi va tarbiyasi berishda maktab, oila va mahallaning o'rni.

Tadqiqot maqsadi: O'quvchilarni hayotga taryorlash, mehnat ta'limi va tarbiyasi berishda maktab, oila va mahalla hamkorligining nechog'li ahamiyatli ekanligini isbotlab berish.

Tadqiqot obyekti – Maktab, oila, mahalla faoliyatida o'quvchilarga bo'lgan e'tiborni hisobga olish.

Tadqiqotning predmeti – o'quvchilarga mehnat ta'limi va tarbiyasi berishda maktab, oila va mahalla jamoatchilik tashkilotlari va jamiyatning eng kichik bo'g'inida olib borilayotgan ishlar.

Tadqiqotning ilmiy farazi: o'quvchilarg amehnat ta'limi va tarbiyasi berishda maktab, oila va mahalla hamkorligining samarali faoliyati tashkil etilsa:

- o'quvchilar ta'lim-tarbiyasida samarali natijalar yuz beradi, ularning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, har qanday joy va vaziyatda turli xil oqimlarga kirib ketishining oldi olinadi;

- o'quvchilar ustidan doimiy nazorat o'rnatilishi hisobiga, ularning hatti-harakatlari doimiy nazorat ostiga olinishiga erishiladi;

- mehnat ta'limi va tarbiyasi berishda maktab, oila va mahalla hamkorligi o'quvchi-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun muhim hisoblangan ijobiy muhit va shart-sharoitlar yaratib beriladi.

Tadqiqotning vazifalari:

1. O'quvchi tarbiyasida oila, mahalla va maktab hamkorligi Konsepsiyasini o'rganish.

2. O'quvchi-yoshlarga mehnat ta'limi va tarbiyasi berishda maktab, oila va mahalla hamkorligining ahamiyatini to'laqonli yoritib berish.

3. Yoshlarning mehnat ta'limi va tarbiyasida maktab, oila va mahalla hamkorligi doirasida har bir bo'g'inga alohida topshiriq yuklatilganligi va uning ahamiyatini anglashga ko'maklashish.

Tadqiqotning yangiligi:

- O'quvchilar ta'lim-tarbiyasida hamkorlik doirasida hamfikrlilik, o'zaro tushunish, ijobiy muhit yaratiladi.
- O'quvchi-yoshlarga bu hamkorlik tomonidan doimiy nazorat o'rtatilib, ularning hatti-harakatlarini oldindan payqash, noxush hodisalarning oldini olish imkoniyati tug'iladi.

Tadqiqot uslublari: o'quv adabiyotlarni, o'quv reja, dasturlar va qo'llanmalarni o'rganish hamda tahlil qilish. Kuzatish, tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun ishlanmalar tuzish, testlar, anketalar, umumlashtirish, xulosalash.

Tadqiqotning metodologik asosi: atoqli pedagoglar olimlarning shaxsning shakllanishi to'g'risidagi nazariyalari, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, umumiy o'rta ta'lim DTS'lari, O'zbekiston respublikasi Prezidentining tarbiya va ta'limni rivojlantirish to'g'risidagi qaror va farmonlari, farmoyishlari va boshqa qonuniy, me'yoriy hujjatlar.

*Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya
masalasiga e'tibor berilmasa, kelajak boy beriladi..."*

I. A. Karimov

I-BOB. "O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA OILA, MAXALLA, MAKTAB XAMKORLIGI" KONSEPSIYASI

1.1. "O'quvchilarni tarbiyalashda oila, maxalla, maktab xamkorligi"

Konsepsiyasi haqida umumiy tushunchalar

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasi yoshlarni istiqloq g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturilamal bo'ldi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator xme'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, birinchidan, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfikrlikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya - milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

uchinchidan, yoshlarni baynalmilal jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat tug'dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash;

to'rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

beshinchidan, yosh avlodni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va admonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

Davlatimiz rahbari ko'rsatib berganidek, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar:

birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga;

ikkinchidan, insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga;

uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsni shakllantirishga;

to'rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga;

beshinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Mazkur Konsepsiyada taraqqiyotimizning ma'naviy-axloqiy negizi milliy va umuman insoniy qadriyatlar uyg'unligi ekanligi e'tirof etildi, milliy va umuminsoniy tarbiyaning quyidagi o'zaro aloqalari, uyg'un yo'nalishlari belgilab olindi.

Milliy tarbiya yo'nalishi orqali yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoyilik fazilatlari shakllantiriladi.

Umuminsoniy yo'nalishda huquqny, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigiyenik va boshqa tarbiya yo'nalishlari amalga oshiriladi. Bu Konsepsiya milliy davlatchilik va jamiyat qurilishi talablari asoslilikini ta'minlaydi.

Konsepsiyada oilaga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonda 1998 yil "Oila yili" deb e'lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytiradi. Qayd etilgan masalalar jamiyatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri va uning dunyo

miqyosidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 martda qabul qilingan "Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 130-sonli qarori misol bo'la oladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 30-moddasida "Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar", deb belgilab qo'yilgan.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning 3.2 bandida esa ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Bu "Oila, maktab, mahalla hamkorligi" bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'alariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbg'yalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish; mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasining asosiy maqsadidir.

O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgaryshlar "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" yo'nalishidagi bola tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, maktabning asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

1.2. "O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi"

Konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida oilaning vazifalari

"Oila - jamiyatning asosiy bo'g'inidir"

I. A. Karimov

Oila jamiyatning asosiy bug'ini, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi jarayonida ota-onalar asosiy buyurtmachi sifatida quyidagi vazifalarni o'z zimmasiga oladi:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishni ta'minlash;

- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;

- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;

- bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;

- bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

- bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqlool g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- bolalarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish;

- farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;

- o'z farzandlarining maktab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish;

- ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;

- bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy axloqiy tomonlarini

shakllantirish;

- oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini uyg'un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas'ullikni ta'minlash;

- sanitariya-gigiyenik, ekologik ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;

- oila, maktab va mahalla oldida o'z farzandlarining barcha xatti-harakatlari uchun javobgardir;

- sog'ligida va aqlida nuqsonlari bo'lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasbkor o'rgatishdan iborat.

Ota-onaning farzand oddidagi burchi, o'zbekona ta'bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib savodini chiqarish, ilimli, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

1.3. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida mahallaning vazifalari

"Mahalla-yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi".

I. A. Karimov

"Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan naqldan kelib chiqib, kelajak avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik Vatan bo'lmish mahallaning oldida quyidagi vazifalar turadi:

- mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashishi va oqilona yechimlarini topishda faollik ko'rsatilishi;

- mahalla o'z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlab va farzandlarining bilim hamda tarbiya olishlariga boshqosh bo'lishi;

- ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralarini ko'rish;

- mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlash;

- ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odoyg, baynalmilallik kabi xislatlarini singdirishni har tomonlama rag'batlashtirish;

- yoshlar diniy mazhablar va sektalar, aqidaparastlikning mohiyatini to'g'ri anglab yetishiga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'gitlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish;

- mahalla yig'inlarida milliy davlatchilik va milliy mafkura g'oyalarini, respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda erishilgan yutuqlar targ'ibotini amalga oshirish borasida turli tadbirlar tashkil qilish;

- "Ma'naviyat va ma'rifat", "Sog'lom avlod uchun", "Mahalla", "Ekosan", "Umid", "Ulug'bek", "Nuroni", "Kamolot" jamg'armalari, xotin-qizlar

qo'mitalari, turli jamiyatlar, birlashmalar va ijodiy uyushmalarni yosh avlodni milliy istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash ishiga, muammoli masalalarning yechimini topishga faol jalb qilish;

- mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarining imkoniyatlarini o'quv-tarbiya muassasalari moddiy negizini mustahkamlashga jalb qilish;

- mahalla hududida o'quv-tarbiya muassasalari bilan birgalikda turli ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalar anjumanlar, bayram va bellashuvlar tashkil qilish;

- turli yo'nalishda iqtidorli bo'lgan o'quvchi bolalarni maktablar tavsiyasiga ko'ra ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- ilg'or pedagogik xodimlar, tarbiyachilarga mahalla imkoniyatlaridan kelib chiqib, har tomonlama yordam ko'rsatish;

- farzandlariga ta'lim va tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan, namunali oilalar hayot tajribasini ommalashtirib, mahalla hududida "Oila saboqlari" mashg'ulotlarini tashkil qilish;

- mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san'atkorlar, ziyolilar va barcha ijod axdining imkoniyatlaridan foydalanib, turli to'garak; va "Usta-shogird" rusumida bilim va kasb berish faoliyatini tashkil qilish;

- mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiynalgan yoshlar uchun ish joylari kvotasining ajratilishiga erishish;

- har bir yosh fuqaroda O'zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, mahalla obodonchiligi, ahilligi uchun javobgarlik ruhini shakllantirish.

1.4. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida maktabning vazifalari

Maktab – tarbiya o'chog'i

Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda maktab va pedagoglarning asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va respublika rahbariyatining dasturiy fikrlari mazmunidan kelib chiqqan bo'lishi kerak, ya'ni:

- maktabda bolaga biron-bir kasbkorni egallashi uchun mustahkam poydevor yaratish;

- o'quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug'ullanishlariga yordam berish, ularning bo'sh vaqtlarini tashkil qilish;

- bolalarga ta'lim berishni ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'quv-uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o'quv-tarbiya jarayonlarini jahon andozalariga mos ravishda ta'minlash;

- o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlari tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ularni turli soha bo'yicha kasb asoslariga yo'naltirish va ta'limda tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

- yosh oilalar bilan ishlash, tibbiy tarbiyaviy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy tushunchalar berish uchun maxsus tadbirlarni amalga oshirish;

- o'z hududidagi mahalla jamoalarining faoliyatini tarbiyaviy maqsad yo'lida muvofiqlashtirish;

- tarbiyasi "og'ir", qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishlash, oilalarga pedagogik yordam berish;

- bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorligida o'rganib, tajribalarini ommalashtirish;

- o'qishni va ishlashni xohlamaydigan, bezorilik yo'lga kirib ketgan o'smirlarni hisobga olib, ularga tegishli tashkilotlar bilan birgalikda zarur choralar ko'rib, ota-onalar yig'inlarida muhokama qilish;

- tarbiya subyektlari bo'lmish huquqiy, tibbiy, ijodiy uyushmalar, yoshlar, tabiatni muhofaza qilish va "Ekosan", "Qizil yarim oy", barcha jamg'arma va

jamoatchilik markazlari, ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari bo'yicha milliy markazlar, kasaba uyushmalari, nodavlat tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalari, mahalliy boshqaruv idoralarining bola tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyat va javobgarligini muvofiqlashtirish;

- turar joyda va mahallada olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlari markazi - maktab bo'lishiga erishish;

- o'quvchi-yoshlar, ota-onalar, jamoatchilik bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ'ib qilish, aqidaparastlik va milliy taraqqiyotimizga

 - zararli g'oyalarning kirib kelishiga qarshi murossasiz kurashishni tashkil etish;

- ta'lim muassasalari nizomlari asosida o'quvchilarning maktabda joriy qilingan tartibga amal qilishlarini va nizomda belgilangan o'quvchilar libosida ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishlarini ta'minlash;

- mahallada, xotin-qizlar orasida zamonaviy bilimlarni targ'ib qilish, o'smir yoshlarning dunyoviy bilimlarga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish;

- maktab negizida pedagogik, huquqiy, psixologik, ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi "Otaonalar universitetlari" faoliyatini tashkil qilish.

II-BOB. OILA, MAHALLA, MAKTAB HAMKORLIGINI AMALGA OSHIRISH TAMOYILLARI, BOSQICHLARI VA MEXANIZMI

2.1. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari

Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Oila, mahalla, maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo'ladi:

- ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;

- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;

- hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati;

- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;

- hamkorlikning ilmiy asoslanganligi;

Birinchi bosqich. Yosh oilalar bilan ishlash. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida falsafiy, tibbiy tushunchalarni berish va bu masalalarga tibbiyot xodimlari, obro'li xotin-qizlarni, ota-onalarni jalb qilib, "Yosh onalar va otalar maktablari" faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bosqich. Farzandning maktabgacha bo'lgan davridagi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash borasida ularga rasm chizish, voqyealarni bayon qilish, o'ziga o'zi xizmat qilish, harf tanish, qo'shiq aytish va raqs tushish, turli o'yinlarda ongli qatnashish tushunchalarini singdirish va mustaqil ravishda bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan maktabga tayyorlash guruhlari, "Yakshanbalik maktablar" ishini tashkil qilish.

Uchinchi bosqich. Kichik yoshdagi (6-11 yosh) maktab davrida bolalarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlash, uning ilk iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, o'z xatgi-harakatlariga javobgarlik hissini tarbiyalash, bo'sh vaqTini to'g'ri tashkil qilishni o'rgatish, atrof-muhitga

ongli munosabatda bo'lib, do'stlik, baynalmilallik, vatanparvarlik xislatlarini shakllantirish.

To'rtinchi bosqich. O'smirlarning (11-16 yosh) qiziqishini, bilimga chanqoqlik va akd zakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat bo'lishini ta'minlash, maishiy mehnat faoliyati orqali turli kasblarga yo'naltirish, o'smirlar guruhleri va jamoatchilik orasida o'z o'rnini topa olishiga ko'maklashish, o'z xatti-harakatlari uchun jamiyat, qonun va ota-onalari oldida javobgarlik tuyg'usini shakldantirish, ijtimoiy faolligi va mustaqil dunyoqarashini yuzaga keltirish.

Beshinchi bosqich. Yoshlarni (16 yosh va undan yuqori) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyorgarliklarini ta'minlash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta'lim olishlariga, tanlagan kasblari bo'yicha ish bilan ta'minlanishlariga, iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga shart-sharoit yaratish. Vatan, Davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to'la shakllantirish, mustaqil oila qurishga tayyorlash.

2.2. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish mexanizmi

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning 4-bo'lim 6-bakdida "Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi" deb belgilab berilgan.

O'zaro hamkorlik ishlarini boshqarish uchun joylarda o'z tarkibiga mahallalar faollari, obro'li ota-onalardan, o'quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning xodimlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlari tuzilishi kerak. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga olgan vazifalardan kelib chiqib, o'z tarkibida turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadigan kichik tashabbuskor guruhlarini tuzishi mumkin. Jamoatchilik kengashi ma'lum bir muddatga mo'ljallangan ish dasturini tuzish va uni mahalla yig'inida tasdiqlab olib, amalga oshirishi zarur bo'ladi. Qayd etilgan tadbirlar davra suhbatlaridan, biron bir mavzuta yoki muammoga qaratilgan kengash va majlislardan, anjumanlardan, mahalla ahlini birlashtiruvchi, ularni sog'lom turmush tarziga yetaklovchi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo'lishi mumkin.

Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'g'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat tug'ilganda o'quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxona va idoralarning ta'lim-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to'g'risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kengash mahalla hududida istiqomat qilayotgan, o'z farzandlari tarbiyasiga befarq ota-onalarga nisbatan davlat boshqaruv idoralari, huquqni himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma'muriy choralarni qo'llashi mumkin.

Kengash tashabbusi bilan biron-bir dolzarb mavzuda favqulodda mahalla yig'inlari, o'quv-tarbiya muassasalarining pedagogik kengashlari yoki boshqa

zarur tadbirlar tashkil qilib o'tkazilishi mumkin. Kengash mahalla hududida o'zbek milliy tarbiya an'analarini tiklash, turli madaniy tadbirlar o'tkazish, bolalar va kattalarning bo'sh vaqtlarini tashkil etish borasida maktablar, o'yingohlar, madaniyat muassasalari, sport inshootlari, o'smirlar klublari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar ishini muvofiqlashtiradi.

Kengash o'tkazilgan tadbirlarni tahlil qiladi, bu borada uslubiy maslahatlar tayyorlaydi va bu tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritadi. Kengash yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi tasarrufiga kirgan masala va muammolarni mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalari, tashkilot va idoralari ishi rejalashtirilishi va amaliyot dasturlariga kiritilishida ularning bahamjihatligini ta'minlaydi. Ushbu kengashlar maktab, tuman, shahar va viloyat miqyosida tashkil qilinishi va kengash a'zolarining barcha davlat va nodavlat tashkilotlariga, jamg'armalarga, jamoatchilik markazlariga va turli tashkilotlarga o'z vakolatlari doirasida murojaat qilishlariga imkoniyat yaratilishi kengash vazifalarini tezkorlik bilan amalga oshirish imkoniyatini beradi.

O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish uslublari.

Ta'lim va tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, direktiv ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyati o'ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllarga ega bo'lishi zarur.

O'tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassgmlashgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko'rgazmali, ta'sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, zstetik jihatdan keng ko'lamli bo'lishi kerak.

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari

“Sog’lom avlod uchun”, “Ota-onangga rahmat”, “Odooingga balli”, “Sog’
tanda sog’lom aql”, “Mehr chashmasi”, “Qizlar ibosi”, “Bir yigitga qirq hunar
oz”

“Ug’lim posbonim”, “Hayot-ustoz, xalq-muallim” “Uzbekiston Vatanim
manim”, “Milliy burch va mas’uliyat”, “Oila saboqlari”, “Oila etikasi”, “Oila tinch
- mahalla tinch”, “Mustaqil hayot bo’sag’asida”, “Askarlik - iigitlik maktabi”,
“Oila baxti - Vatan baxti”, “Sportchi oila”, “Oilamiz ohanglari”, “Vatan ostonadan
boshlanadi”, “Biz kimmiz” kabi tadbirlardan iorat bo’lishi mumkin.

2.3. O'quvchilarni kasbga yo'llashda oila va maktab hamkorligini o'rganish

Maktab, oila va ishlab chiqarishning hamdo'stligi yosh avlodni yangi ruhda tarbiyalashning asosiy prinsipi hisoblanadi. O'quvchilarda professional qiziqishlarini rivojlantirish va tarkib toptirish, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi xizmat ko'rsatish sohasi ishchi kasblariga ijtimoiy e'tiborning ortishi, xayot yo'lining ongli ravishda tanlash ishining muvaffaqiyati maktab, oila va ishlab chiqarishning birgalikda olib borilgan samarali ishlariga bog'liq.

Shaxsni tarbiyalash asoslari oiladan boshlanadi, ya'ni o'quvchilar ba'zi kasblar bilan, xususan o'z ota-onalari, akalari, opalari, qarindosh urug'larining kasblari bilan oilada tanisha boshlaydilar bu esa o'quvchilar professional qiziqishlarining rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarning hamma ota-onalarini (ularni o'z bolalari bilan oilaviy kasb tanlashga yo'llash ishlarida aktiv ishtirok etish darajasiga qarab) taxminan 4 kategoriyaga bo'lish mumkin.

1. Ota-onalar bolalarining o'yinlari va mehnatini kuzatadilar, uyda bolalarni qiziqqan har qanday ish bilan mashg'ul bo'lishlari uchun sharoit yaratib beradilar; bolalari bilan korxona, kallektivning mehnati haqida, o'z ishlab chiqarish muvaffaqiyatlari to'g'risida suhbatlashadilar; ularning qiziqishlari va qobiliyatlari va xalq xo'jaligi ehtiyojlarini hisobga olgan holda aniq maslahatlar beradilar.
2. Ota-onalar bolalari bilan kasb tanlash haqida suhbatlashadilar, lekin aktiv ta'sir ko'rsatmaydilar, o'z bolalarining individual hususiyatlarini har doim ham hisobga olavermaydilar.
3. Ota-onalar bolalarining rejalariga ha deb aralashaveradilar, ularning qiziqishlari, istak va imkoniyatlarini hisobga olmaydilar, yashning moddiy va obroli tamonlaridan kelib chiqib o'zlari tanlagan ixtisosni egallashga majbur qiladilar.
4. Ota-onalar o'z bolalarining kelajagiga passiv va sovuqqonlik bilan qaraydilar, ularga kasbtanlashga yordam bermaydilar, bu muammodan

o'zlarining behabarligi va noto'g'ri maslag'at berib qo'yishlaridan cho'chib, "o'zing ko'r", "qaysi biri yaxshi bo'lsa shuni tanla" va x.k. larkabilida ish tutib, o'zlarni chetga tortadilar.

Ko'pchilik ota-onalar kasb tanlashga yo'llash masalalari bo'yicha maslahatlariga muhtojdirlar. Ular bunday yordamni suhbat, konsul'tatsiya va boshqa tadbirlar formasida maktab pedagogika kallektivi, vrach, psixolog, korxona mutaxasislaridan olish mumkin.

Maktab o'zining rejalashtirgan tadbirlariga muvofiq ravishda ota-onalar kanferensiyasini uyushtirish va o'tkazish kerak. Bu konfrensiyalarda korxona kadrlar bo'limlari, mehnat resurslaridan foydalanish bo'yicha bo'limlarning, viloyat xodimlari, turli xil kasblarning, vakillari va o'quv yurtlarining rahbarlari hamda ota-onalar so'zga chiqishlari mumkin bo'ladi. Ular o'z kasblarining mazmuni haqida muvofaqiyatli mehnat qilishi uchun qo'llaniladigan zarur bilim va malakalar hamda boshqa narsalar to'g'risida bu kasbni qayerda va qanday egallash va shu hususida qanday mahoratli bo'lish haqida; yoshlar duch keladigan qiyinchiliklar haqida va o'quvchilar bilan oilaviy suhbatlar uchun tavsiyalar haqida gapirib berishlari kerak.

Maktabdagi kasb tanlashga yo'llash ishlarini olib borishga ota-onalarining o'zlarini, ayniqsa, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ishchi kasblarning vakillarini keng jalb etish zarur.

2.4. «Oila, mahalla, maktab hamkorligi samaradorligini oshirish» bo'yicha tavsiya

Har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalash bugun jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmokda. Jamiyatimizda ro'y berayotgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar yoshlar ongiga taosir qilmasdan qolmaydi.

Yosh avlodning tarbiyasi bilan shug'ullanadigan pedagogik muammolar orasida voyaga yetmaganlarning huquq buzishiga sabab bo'ladigan omil alohida o'rin tutadi. Har qanday huquqning buzilishi zahirida axloqiy tarbiyadagi nuqson yotadi.

Hozirgi maktab o'rindiqlarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodga yetkazuvchi vorislarimizdir.

Shunday ekan, yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanadigan pedagoglar kelgusi avlod barkamolligi uchun, o'g'il-qizlarimizning ulug' ajdodlarimizga xos oqil bo'lishlari uchun mas'uldirlar.

Inson hech qachon jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. Shuningdek, birdaniga tarbiyali va bilimli bo'lib qolmaydi.

Ma'lumki, uzoq va boy tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan merosiga ega. Bu meros bugungi avlodni insonparvarlik, mehr-muhabbat, oqibat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mardlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Har bir inson dunyoga kelar ekan, u o'sib, ulg'ayib kamol topadi.

Uning insoniyligi, axloq-odobi, xulq-atvori dastavval, o'z oilasida shakllanadi. Demak, oila tarbiya maskanidir.

Shuning uchun dono xalqimiz «Qush uyasida ko'rganini qiladi» deydi. Demak, insoniylikning ilk xislatlari ota-ona bergan tarbiya orqali shakllanadi.

Oila –tarbiya maskani. Dunyoga kelgan farzand ota-onadan axloq-odob qoidalarini, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi qadriyatlarni egallaydi.

Oilada bo'sh vaqtni faol tashkil etish, madaniyat, sanoat maskanlariga, tarixiy obidalarga, qadamjolarga sayohatlar uyushtirish – oila barkamolligini taominlashga xizmat qiladi.

Inson maonaviyati dastlab oila sharoitida shakllanadi va jamiyat maonaviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Oilada farzandning ota-ona oldidagi burchi nihoyatda muhimdir.

Noqobil farzand ota-onaning qaddini bukadi, el-yurt oldida ularning boshini xam qiladi.

Yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish har bir ota-onaning, tarbiyachi-murabbiylarning, jamoatchilikning Vatan oldidagi burchlaridir.

Tarbiya – ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun avvalo tarbiyalanishi zarur.

Tarbiya –ko'p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir. Bolani o'rab olgan muhitning hammasi – odamlar, narsalar, hodisalar uning ongida, xulq-atvorida maolom iz qoldiradi, uni o'zgartiradi va o'stiradi.

Har bir ota-ona tarbiyaning o'ziga xos nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarini o'zlashtirib, ularga amal qilishi lozim. Negaki, oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik, murakkab masala bo'lib, ota-onadan pedagogik bilim, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi.

Ota-ona, avlod-ajdodlarimiz tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, o'g'il-qizlarni yoshligidan mehnatsevar, har bir topshiriqni katta yoki kichikligidan qat'iy nazar o'z vaqtida, aniq bajaradigan, umrining har bir daqiqasini qadrlaydigan qilib tarbiyalash lozim. U yoki bu oiladagi tarbiyaning samaradorligi, albatta, ota-onaning qanchalik bilimli, madaniyatli bo'lishi, bola tarbiyasiga masouliyat bilan qarashlari, farzandlari kelajagini chuqur his etishlari, tajribada sinalgan milliy urf-odat va anoanalardan unumli foydalanishlariga bog'liq. Tarbiyada talabchanlik, ota-ona va katta yoshdagi kishilarning o'zaro ahilliklari, kichiklarga g'amxo'rlik, osuda turmush va halol mehnat faoliyatlari oilaviy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Bundan tashqari har bir oilada farzand tarbiyasida aniq bir maqsad bo'lishi kerak.

Eng muhimi farzandlarimizni nafaqat bo'lajak ota-ona yoki aka-uka, opa-singil sifatida, balki jamiyatning haqiqiy fuqarosi, kelajagiga ishonuvchi, unga sadoqat bilan xizmat qiluvchi inson, vatanparvar, posbon sifatida ham tarbiyalashga e'tibor berishimiz lozim.

Oilaviy omillar o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Ijobiy sifatlarni qaror toptirish uchun yoshlar bilan, ayniqsa yuqori sinf o'quvchilari bilan muntazam shug'ullanish lozim.

Lekin jamiyatimizda yoshlar tarbiyasida ayrim bo'shliqlari vujudga kelayotganini, dunyoqarashi past, bilimi zaif, yosh bo'lsada, jinoyatga qo'l urgan, giyohvandlikka moyil, ichkilik va chekishga ruju qo'yishgan, o'qishga qiziqmaydigan, tarbiyasi og'ir bolalarning borligi tashvishli holdir.

Kun sayin taraqqiy etib, ravnaq topayotgan jamiyatimizda yuqoridagiga o'xshagan tarbiyasi og'ir, jinoyatga qul urayotgan o'smirlar qayerdan paydo bo'layapti? Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qituvchilarimiz yetarli bilim berishmayapti-mi? Turmush tashvishlari bilan o'ralashib, oilada farzand tarbiyasiga e'tiborsiz qarayotgan ota-onalar aybdor-mi, yoki farzandlarimiz o'zlari loqayd, beparvo, sovuqqon bo'lib qolayotganlari tufayli-mi?

Avvalo, o'smirlarni tartibbuzarlikka jalb etayotgan qator ijtimoiy-ruhiy omillar mavjud. Bular:

- o'smirlarda bo'sh vaqtning ko'pligi;
- kattalar tomonidan nazoratning yo'qligi;
- bo'sh vaqtni o'tkazish joyi va vaqtining betayinligi;
- ko'ngilochar va zararli odatlar o'tkazishga imkon borligi va boshqalar.

O'quvchi yoshlarni «tarbiyali bo'ling!» degan bilan tarbiyalab bo'lmaydi. Buning uchun avvalo ota-ona shaxsan namuna ko'rsatmog'i lozim. Bola insoniy xislatlarini, ezgulikni, odamiylikni, yaxshilikni ham, yomonlikni ham eng avvalo oiladagi kattalarning hatti-harakatlaridan o'rganadi. **Ota-ona o'z xulq-atvori bilan farzand hurmatiga sazovor bo'lishlari, uning hayot yo'lida o'rnak bo'lishlari lozim.** Bu odat ularning ongiga singishi lozim.

Shunday oilada o'sgan bolagina, ota-onani, qolaversa o'z ustozlarini hurmat qiladigan, mahalla ko'yda o'zidan kichikni hurmatlash, kattalarni izzatlashni o'z o'rniga qo'yadigan, xalqparvar bo'lib yetishadi.

Har bir tarbiyachi tarbiya sanoatkori bo'lmog'i lozim. Bu bolalarni sevish sanoatidir.

Tarbiyasi og'ir, qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishlash, ularni jamoatchilik kengashlariga olib chiqish, foydali mehnatga jalb qilish, to'garaklarga qatnashtirish, hunarmanchilikka o'rgatishni taominlash, har bir tarbiyasi og'ir bolaga jamoatchilik faollarini biriktirish, vaqti-vaqti bilan ularning hisobotlarini tinglash lozim.

Xalq taolimi vazirligining 2004 yil 26 fevraldagi 26-sonli hayot majlisi qarori bilan **«Oila, mahalla, maktab» Konsepsiyasi** qabul qilindi.

Bu vazifalarni hal etish uchun:

Vazirlikning tashabbusi bilan Respublikamizdagi bir qator Davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda **«Jamoatchilik maslahat kengashi»** tuzilib, joylarda tarbiyasi og'ir, huquqbuzarlikka moyil hamda daydib yurgan bolalar bilan ishlash, ularni taolim-tarbiyasiga eotibor qaratish va «Oila, mahalla, maktab» Konsepsiyasini amalda hayotga joriy etishga qaratildi.

Kengash o'z oldiga: mahallalarda bolalar dam olishiga, qiziqarli ishlar bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratish, mahallalarda tarbiyaning taosirchanligi, homiy tashkilotlar yordamida mahallalarda sport-sog'lomlashtirish maydonchalari tashkil etish, mahallalarda qizlar hayosi, ibosi, turmushga, hayotga tayyorlash haqida bahs, munozaralar o'tkazish, yoshlarda milliy urf-odatlar, azaliy udumlar, tarixiy anoanalarni o'rganish, maktab, jamoatchilik, mahalla ahli hamkorlikda tadbirlar o'tkazishni, joylardagi hokimiyatlar, «Mahalla», «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda yordam berishni maqsad qilib qo'ygan.

Oiladagi bolalarni to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyadagi birlikdir.

Bunday ulkan, masouliyatli, sharaflı ishni **oila, maktab, mahalla**, keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining «Yuksak maonaviyat-yengilmas kuch» asarida: «Yangi jamiyat bunyodkori bo'lmish yangi insonni tarbiyalashda hozirgi paytda mahallalarimizda samarali faoliyat olib borayotgan, bu noyob tuzilmani tom maonoda o'zini o'zi boshqarish idoralariga aylantirishga katta hissa qo'shib kelayotgan mahalla oqsoqollari va faollari, fuqarolar yig'inlarining diniy maorifat va maonaviy-axloqiy masalalar bo'yicha maslahatchilarining ijobiy taosiri tobora ortib bormoqda. Aynan ana shu insonlarning odamlar ko'ngliga yo'l topib, ularning dardu tashvishiga sherik bo'lib, o'z vaqtida berayotgan amaliy yordamlari, to'g'ri va o'rinli maslahatlari tufayli oila va mahalla muhitida, butun diyorimizda tinchlik va osoyishtalik, o'zaro mehr-oqibat tuyg'ulari kuchayib borayotganini el-yurtimiz yuksak qadrlaydi. Ayniqsa, yosh yigit va qizlarimizning mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning jamiyatdan o'ziga munosib o'rin topishida bu fidoyi va mehribon, jonkuyar odamlarning qanchalik muhim rol o'ynayotganini hurmat bilan e'tirof etishimiz lozim», -deb yozadi.

Oila va mahalla har tomonlama bir-birlari bilan bog'liq. Mahalla oilalardan tashkil topadi. Mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisidir.

Insonlar o'rtasida birlik va hamjihatlikning muhim vositasi – **mahalladir**. Farzand tarbiyasiga ham barcha mahalladagilar mas'uldirlar. Mahalla – muruvvat markazidir. Mahalla – maonaviy-axloqiy qadriyatlar, an'analarning maskani. Mahalla yoshlarni kasb-hunarga yo'llovchi makondir. Mahalla – oila tinch-totuvligini, jipsligini mustahkamlaydigan maskandir.

Mahallaning ustunligi shundaki, bu yerda ko'p yillar davomida birga yashagan, bir-birini bilgan, sinagan, tanigan kishilar istiqomat qiladilar. Ular har bir oiladagi muhitni va har bir bola tarbiyasini, ota-onasini mahallada tutgan o'rni va obro' e'tiborini, har bir oilaning mavqie-imkoniyatlarini yaxshi biladilar. Buning uchun:

-oila, mahalla, maktab, jamoatchilik hamkorligi rejasini tuzish;

-tarbiyaviy ishlar o'tkazish dasturi va shu dastur asosida mahallada yashovchi har bir bola bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish;

-mahallada bolalar dam olishiga, qiziqarli ishlar bilan shug'ullanishiga imkoniyat yaratib berish;

-mahallada tarbiyaning taosirini oshirish;

-homiylar tashkilotlar yordamida mahallalarga yordam berib, maxsus sport-sog'lomlashtirish maydoncha tashkil etishga ko'maklashish;

-maktab maomuriyati bilan ota-onalar majlislarini uyushtirish, taolim-tarbiya jarayoniga oid masalalarni muhokamaga olib chiqish;

-sud, prokuratura, adliya va milisiya xodimlari bilan mahallada tarbiyasi og'ir, tarbiyaga muhtoj bo'lgan bolalar, ularning oilalari bilan ishlash tadbirlari, davra suhbatlari uyushtirish;

-mahallada huquqiy tarbiyani kuchaytirish, Qonunlarga ongli yondoshish xislatlarini singdirib borish, sud, prokuratura xodimlari bilan uchrashuvlar, ochiq sudlar o'tkazishni uyushtirish;

-mahallalarda qizlar hayosi, ibosi, turmushga, hayotga tayyorligi haqida bahs, munozaralar o'tkazish;

-yoshlarda milliy urf-odatlar, azaliy udumlar, xalq og'zaki ijodi namunalarini tashkil etishga, tarixiy anonalarni o'rganish, maktab, jamoatchilik, mahalla ahli hamkorligida tadbirlar o'tkazish;

- yoshlar maonaviyatini yuksaltirishda fuqarolar yig'inlarining diniy maorifat va maonaviy-axloqiy masalalar bo'yicha maslahatchilarini keng jalb etish;

Qayd qilib o'tilgan ishlar davlatimiz tomonidan voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida qonunbuzarlikning oldini olish tadbirlariga oid hujjatlarga suyanagan holda bajarilishi lozim.

Hozirda **umumtaolim maktablarida** boshlang'ich sinflardan boshlab «Huquqiy tarbiya», «Konstitusiya olamiga sayohat», «Bolalar Konvensiyasi» rukni ostida darsliklar va qo'llanmalardan foydalanilgan holda o'quvchilarga huquqiy tarbiya berib borilmoqda.

O'quvchilarga fuqarolik maqsad tuyg'usini yanada singdirish, axloqiy eotiqodlarni shakllantirish uchun:

- darsdan tashqari ishda ommaviy axborot vositalari, vaqtli matbuot, radio, televideniya beriladigan «Inson va huquq» mavzusida suhbat va maoruzalar turkumidan, yuristlar gurungi va shu kabilardan foydalanib o'quvchilar o'rtasida huquq targ'ibotini kuchaytirish;

- o'quv mashg'ulotlarining rang-barang shakl va uslublaridan foydalangan holda o'yinlar, muammoli vaziyatlar, huquqiy organlar qoshida o'tkaziladigan ochiq muloqotlardan faol foydalanish;

- tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan axloq normalari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shaxs erkinligi, huquq va burchlari mavzularida targ'ibot ishlarini olib borish;

- o'quvchilarning darslarga qatnashishi va ularning xulqini o'rganish;

- o'zlashtirmaydigan bolalar bilan qo'shimcha dars olib borish;

- spirtli ichimliklarning zarari haqida o'quvchi va tarbiyasi og'ir bolalarga badiiy, hujjatli filmlar namoyish etish va muhokama qilishni tashkil etish;

- o'quvchilarning oilalarini eotibor bilan o'rganib, ularning ota-onalari xarakteri, xususiyatlarini, maolomotini, eotiqodini, maonaviy qiyofasini, bolalarga munosabatini har bir sinf rahbari bilishi;

- sinf rahbarlari va o'qituvchilar, hokimliklar qoshidagi voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi inspeksiyalar bilan hamkorlikda turli tadbirlar o'tkazish va yoshlarni to'g'ri tarbiyalashda faol qatnashishlari talab etiladi.

Har yili anoanaga aylangan umumtaolim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida «Siz qonunni bilasizmi?» ko'rik-tanlovining o'tkazilishi voyaga yetmagan o'smirlarni hayotda to'g'ri va mustaqil o'ringa ega bo'lishlarida o'z samarasini bermoqda.

Bugun oila, mahalla, maktab o'zaro hamkorlikda o'quvchilar orasida qonunbuzarlik va jinoyatni oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirishi, buning uchun esa ularning umumiy hamkorligini har qachongidan ham ortirmogi kerak.

Ayniqsa, o'quvchilar qonunni quruq yodlab olishlari bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. O'sha qonunni hayotda qayerda va qanday qo'llanish yo'llarini misollar bilan tushuntirish, yaoni ichki ishlar, prokuratura, sud xodimlari maktablarga borib, qonunni amalda qo'llanishini, bu sohada qonun buzilishiga yo'l qo'ygan kishilarni jazolaganliklari to'g'risida hayotiy misollar asosida tushuntirishga yordam bersalar, farzandlarimiz huquqiy davlatimizning buyuk kelajagiga munosib bo'lib yetishadilar.

Umumtaolim maktablarida o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: o'quvchilar o'rtasida kitobxonlik darajasini ko'tarish, kino, teatr, konsert va ko'rgazmalarga borish, sayohatlar, sayllar, sport musobaqalari tashkil etish, tanlovlar, tarbiyaviy tadbirlar, bayramlarda ishtirok etish yaxshi samara beradi.

Umumtaolim maktablarida tarbiyasi og'ir bolalar bilan ish olib borishda shuni hisobga olish kerakki, ularning psixik va asab faoliyatida turli chalg'ishlar bo'lishi mumkin, shuning uchun ham bunday bolalarni psixonevrolog ko'rigidan o'tkazib, shifokor bilan bamaslahat ish olib borish yaxshi natija beradi.

Bolalarimizni bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishlariga sharoit yaratib berish lozim. Ularni maktabdan tashqari taolim muassasalariga, sport va musiqa maktablari va maktablar qoshidagi to'garaklarga jalb etishga ko'maklashish lozim .

To'garak aozolari orasida milliy xalq hunarmandchiligi to'garaklari tarmoqlarini kengaytirish, xalq ustalarini to'garak ishi jalb etish, ushbu to'garaklarni ko'proq maktablar, mahallalar hamda ijodiy ustaxonalar qoshida tashkil etish ishlariga alohida e'tibor berish;

mahallalarda hunarmandlar bilan bolalar tarbiyasini bog'lab, nonvoylik, naqqoshlik, duradgorlik, kashtachilik va boshqa hunarlarga bolalarni qiziqtirish, shunday kasbni bilgan oilalarga bolalarni biriktirish, mahallalarda imkoni bo'lsa, hunar o'rgatadigan markazlar tashkil etish;

o'quvchilarning qiziqishlarini o'rganib, ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan turli to'garaklar, klublar va seksiyalar tashkil etish;

yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya, sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

ta'lim muassasalaridagi kutubxonalarni badiiy adabiyotlar bilan boyitish;

O'quvchilar qiziqishiga qarab, to'garaklar sonini va yozgi dam olish oromgohlariga ko'proq o'quvchilarni jalb etishni yo'lga qo'yish;

-barcha o'quv fanlari asosida to'garaklar tashkil etish va unga tarbiyasi og'ir bolalarni jalb etish orqali ma'lum samaraga erishish;

o'quvchilar iqtidorini yanada takomillashtirish maqsadida turli ommaviy tadbirlar, musobaqalar va ko'rik-tanlovlar o'tkazish yo'li bilan boy madaniy merosimizga hurmat, ona-Vatanga, uning ramzlariga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim rol o'ynaydi.

Bunda **asosiy e'tiborni sinf rahbarlari, maonaviy maorifiy-tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, maktab direktori va bolalar yetakchilari o'z faoliyatlarini bu yo'nalishga e'tibor bilan qaratishlari lozim bo'ladi.** Chunki ular maktab mikrorayonida ijtimoiy-pedagogik, tarbiyaviy ishlarni olib borishda o'tkaziladigan tadbirlarning ayni tashkilotchilari hisoblanadilar.

Xulosa

Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi bolalarni tarbiyalashning xususiyatlari A.S. Makarenko ta'kidlashicha «bir oiladagi tarbiyaviy ish amlo boshqa oiladagi xudi shunday ishning aniq kopiyasi bo'lmasligi lozim».

Hozirgi zamon taraqqiyoti har bir shaxsdan voqyelikni to'g'ri tushunishni, tahlil qilishni, xulosa chiqarishni, axloqiy poklikni va hissiy- asabiy chidamlilimni hamda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida faol bo'lishni talab qilmoqda. Ma'lumki yuqoridagi sifatlarni shaxsga oila asos soladi, shakllantiradi.

Inson hayotining porloq bo'lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq. Bunday ulkan vazifani amalga oshiruvchi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi asos- oiladir. Oila jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'ini sifatida murakkab tarkibga, mazmunga ega bo'lib, u o'z faoliyatida oila a'zolari faoliyatining maqsad va vazifalarinigina emas, balki tarbiyaviy farliyatini ham o'zida aks ettiradi.

Oilaning murakkab, ko'p qirrali faoliyatining hayotiyiligi ikki tomonlamadir:

- birinchidan, oila jamiyatning kichik bir qismi bo'lib, undagi o'zgarishoarni o'ta sezgirlik bilan o'zida aks ettiradi. Shunga asoslanib oilaviy tarbiyani ijtimoiy tarbiyaning bir tarkibi deb hisoblash lozim.

- ikkinchidan, oilaning murakkab, ko'p qirrali faoliyati uning vazifalari, tuzilishiga, umumiy turmush tarziga, oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, munosabatlariga va ijtimoiy faoliyatlariga bog'liqligini hisobga olish kerak.

Oila tarbiyasining o'ziga xosligi shundan iboratki, u bolalarga ota-onalarning ota- onplik, qon- qarindoshlik singari ko'plab kerak xislatlarni uzatib oilada tarbiyalanayotgan shaxsning ko'plab insoniy sifatlarini rivojlantirib, axloqiy kamolotini ham o'stiradi. Shu sababli oila tarbiyasi doimo mavjud, ko'rsatmali va serqirraltgi bilan ajralib turadi.

Ota - onalar ma'naviy boy, e'tiqodli va yuqori ma'lumotga egava ma'naviy boy bo'lsalar, shu darajada takomillashgan uslub orqali o'z farzandlarini tarbiyalaydilar. Yoki aksincha, bularning barchasi oila tarbiyasining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Ular faqat tarbiyalashning turli usullari ya'ni tushuntirish,

maslahat berish, ma'qullash, jazolash, rag'batlantirish bilangina emas, balki shaxsiy namuna, birga ishlash orqali ham tarbiyalaydilar. Ota - onalarning bolalar faoliyatida ishtirok etishi, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning samarali usulidir.

Masalan: har tomonlama moddiy ta'minlangan oilada tarbiyalanayotgan bolalar tarbiyasi, qashshoq, bechora hol oilada tarbiyalanayotgan bolalar tarbiyasi o'z mazmuniga ega. Birinchi oilada bolalar moddiy ne'matlarning Qadriga yetmagan bo'lsalar, ikkinchisida esa oila ta'minotini hisob- kitob, aql bilan tashkil qilishni bilishmaydi. Bu singari xususiyatlar oila tarbiyasining murakkabligini ko'rsatadi.

Ota - onalarning umumiy, madaniy, ma'lumot saviyalarining o'sib borishi va faolligining qaror topishi oila tarbiyasining mazmuniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Agar maktab oilaviy tarbiyashunosligiga ijobiy munosabat bilan yondashsa, uning tarbiyaviy imkoniyatlarini yaxshi o'rgansa, ya'ni: ota – onalar obro'si, shaxsiy namunasi, bolalar hayotini tashkil qilish, o'z - o'zini tarbiyalashni nazorat qilish, o'zaro yordam, hamkorlik, ittifoqlik, hamjihatlik hamda oila tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan maqsadli foydalana olsa, oila tarbiyasining takomillashuviga erishadi.

Hozirgi zamon oilalari mavjud jamiyat bilan uzviy bog'langandir. Shahar, qishloqlarning o'sishi, yashash sharoitlarining yaxshilanishi, xalqning madaniy va turmush saviyasining oshishi bolalarni barkamol hamda oila tarbiyasi mazmuniga o'zgartirishlar kiritishni talab qilmoqda.

Tarbiya masalasiga yondashadigan bo'lsak, kam bolali oilalarga nisbatan ko'p bolali oilalarda bolalar tarbiyasi ancha yengil kechadi. Chunki ko'p bolali oilalardagi bolalar, ota –onalarning xatti- harakatlarini, aka va opalarining ular to'g'risidagi g'amxo'rliklarini, ayniqsa bir-birlariga bo'lgan do'stona munasabatlarini, uydagi har xil vazifalar ni sitqidildan bajarishlarini, kichiklarning kattalarga odob bilan munosabatda bo'lishlarini tabiiy holda ko'radilar, kuzatadilar. Ota-onalarning bolalarga g'amxo'rligi teng taqsimlanadi. Kam bolali oilalarda esa buning aksi bo'ladi.

Katta oilada bola yoshligidan jamoaga moslashadi, o'zaro aloqalar tufayli ijobiy, zaruriy ko'nikmalar to'playdi. Kam bolali oilalarga nisbatan ko'p bolali oilalarda bolalar o'zaro narsalarni teng bo'lishda adolat tarozisi asosida taqsimlashga odatlanadilar.

Konstitusiyaning 64-moddasida «Ota - onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlirlar» va 66- moddasida «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota- onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburlirlar» deb ta'kidlanadi.

Kattalarga hurmat va bo'ysinish o'zbek oilalaridagi an'anaviy tarbiya uslublaridan biridir. Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalash, ota- onalarning va katta yoshdagi barcha kishilarning namunasi bola shaxsini shakllantiruvchi, uning dunyoqarashiga, xulq- atvoriga, jamoa orasida o'zini tuta bilishga o'rgatuvchi omildir. Aynan oila bolani qadam qo'ydiradi, uning o'ziga xos xususiyati va ma'naviy qiyofasining shakllanishiga asos soladi.

Oilaviy tarbiyaning tub maqsadi, mazmuni bolalarni umuminsoniy xulq mezonlariga rioya qilgan holda ularni bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlashdan iboratdir. Bulardan tashqari ularning g'oyaviy-siyosiy, madaniy oqartuv sohadagi qiziqishlariga e'tibor beriladi. Bu sohada turli oilalarda berilayotgan tarbiyaning bir-biridan farqi borligini ham unutmash kerak. Bizningcha, o'zbek oilalarida mehnat tarbiyasi berish va kasbga yo'naltirish quyidagi tuzilish va mazmunda olib boriladi deyish mumkin: (Buning ham o'ziga xos milliy xususiyatlari mavjud)

1. Bolalarga mehnatga iloji boricha ertaroq jalb qilish.
2. Bolalarni mehnat ko'nikmalariga o'rgatish, qurollantirish
3. Kasbga yo'naltirish (Ustoz- shogirdlik)
4. Bolalarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash
5. Murabbiylik qilish: a) oilada, b) mehnat jamoalarida.

Buyuk mutafakkir A.R.Beruniy «Har bir kishining qadr – qimmatini o'z ishini qoyil qilib bajarishidir»- degan.

«Insonning asosiy burchi, vazifasi mehnat qilishidir, chunki istalgan narsaga mehnat tufayli erishadi».

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.: O'zbekiston, 1999. – 32 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997. – 20-29-b.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy milliy dasturi» // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997. – -b.
4. M.Abdullayeva. Bolalar o'yinlarida o'zaro munosabatlar. Boshlang'ich talim, 2000 y 3 may-iyun, 22b-b
5. M.Abdullayeva, A.Sulaymonov. Oilada bolalarni estetik ruxda tarbiyalash. Xalk talimi, 2004 № 2-100-103 betlar
6. Abdurahmonova D. A. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: Ped. fanl. nom. diss ... – , 1998. – 171 b.
7. M.Abdullayeva. Estetik tarbiyalanganlik mezonlari. Xalq ta'limi, 2004 yil № 5. 120-23 betlar
8. M.Abdullayeva. Oilada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarini shakllantirish // Xalq ta'limi, 2006 yil №4 86-89 betlar.
9. Alimova D.X. Vospitaniye u starshix doshkolnikov emosionalno-polojitel'nogo otnosheniya k sverstnikam: Diss.kand.ped.nauk. – T.: 1991.
10. Akbarova R.T. Tvorcheskoye razvitiye v prosesse muzыkalno-xoreo-graficheskoy deyatel'nosti detey shesti let: Avtoref. diss... kand. ped. nauk. – M.: 1999. – 18 s.
11. Annamuratova S. K. Pedagogicheskiye osnovы xudojestvenno-esteticheskogo vospitaniya starsheklassnikov vo vneklassnoy rabote: Avtoref. dis... dokt. ped.nauk. – T.: 1991. – 34 s.
12. Ahmedova Q., Yuzina T. Bolangiz maktabga tayyormi? – T.: 2000. – 320 b.

13. Barkamol avlod orzusi // Tuzuvchilar: Sh. Qurbonov, Q. Saidov, R.Axliddinov. To'ldirilgan 2-nashri. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 248 b.
14. Bogateyeva Z. A. Мотивы народных орнаментов в детских аппликациях: kn. dlya vospitatelya det. sada. – 2-oye izdaniye, pererab. i dop. – M.: Prosveshcheniye, 1986. – 207 b.
15. Bolalar bog'chasida estetik tarbiya: N. A. Vetlugina tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1981. – 208 b.
16. Valixo'jayeva F. B. Talabalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga estetik tarbiya berishga tayyorlash: Ped.fanl.nomz.diss. – T.: 2005. – 135 b.
17. Выгодский Л. С. Педагогическая психология / Под.ред. В.В.Давыдова. – M.: Педагогика, 1991. – 480 s.
18. Gaziyeva S. A. Formirovaniye u starshix doshkolnikov spravedlivogo otnosheniya k okrujayushim na osnove ispolzovaniya uzbekskogo narodnogo ustnogo tvorchestva (na primere narodnykh skazok i igr)
19. Davidchuk A. N. Razvitiye u doshkolnikov konstruktivnogo tvorchestva. – M.: Prosveshcheniye, 1976. – 79 s.
20. Dmitriyeva Ye. N. Pedagogicheskiye usloviya formirovaniya nravstvennogo dolga u detey starshego doshkolnogo vozrasta. Avtoref. diss. kand. ped. nauk. – M.: 1990. – 16 s.
21. Doshkolnaya pedagogika / Uchebnoye posobiye. Pod.red. V. I. Loginovoy, P. G. Samorukovoy. Ch. 1. – 2-ye izdaniye, ispr. i dop. – M.: Prosveshcheniye, 1988. – 256 s.
22. Jakeyeva R. Podgotovka studentov pedvuzov k rabote po esteticheskomu vospitaniyu mladshix shkolnikov: Avtoref.diss...kand.ped.nauk. – M.: 1987. – 20 s.
23. Jamolitdinova O. Katta bog'cha yoshidagi bolalarda xalq hunarmandligi vositasida mehnatsevarlikni tarbiyalash: Ped.fanl.nomz.diss...- T.: 1997. – 163 b.
24. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2004. – 334 b.

25. Izmaylov A. E. Etika i pedagogika semeynoy jizni: v predstavleniyax i idealax narodnoy mudrosti. – T.: O'qituvchi, 1986. – 208 s.
26. Izmaylov A. E. Narodnaya pedagogika: Pedagogicheskiye vozzreniya narodov Sredney Azii i Kazaxstana. – M.: Pedagogika, 1991. – 256 s.
27. Yo'ldosheva R. O'zbek xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati. – T.: O'qituvchi, 1992. – b.
28. Kazakova T. G. Razvivayte u doshkolnikov tvorchestvo: Posobiye dlya vospitateley det.sada. – M.: Prosveshcheniye, 1985. – 192 s.
29. Kazakova T. G. Izobrazitel'naya deyatel'nost' i xudojestvennoye razvitiye doshkolnikov. – M.: Prosveshcheniye, 1985. – 111 s.
30. Karimov I. Oila farovonligi – millat farovonligi // Xalq so'zi. 1997. 8.12. № 248.
31. Kasvemova X. I. Ispolzovaniye natsionalnykh traditsiy v nraivstvennom vospitanii detey doshkol'nogo vozrasta v sem'ye: Avtoref. diss... kand. ped. nauk. – T.: 2001. – 27 s.
32. Komarova T. S. Metodika obucheniya izobrazitel'noy deyatel'nosti i konstruktirovaniya. – M.: Prosveqeniye, 1985. – 270 s.
33. Kominskaya V. B., Xalezova N. B. Osnovy izobrazitel'nogo iskusstva i metodika rukovodstva izobrazitel'noy deyatel'nosti detey. – M.: Prosveshcheniye, 1984. – 240 s.
34. Krutos V. P. Esteticheskiye aspekty formirovaniya xaraktera lichnosti. – V kn.: Formirovaniye sistemy esteticheskogo vospitaniya: Mat. simpoziuma. – M.: 1983.
35. Kurbanov Sh. E. Sosialno-pedagogicheskiye osobennosti natsionalnoy modeli i programmy po podgotovki kadrov: Avtoref. diss... kand. ped. nauk. – T.: 2000. – 51 s.

“OILA, MAHALLA, MAKTAB HAMKORLIK MARKAZI”NING NAMUNAVIY NIZOMI

1. Umumiy qoidalar

1.1. “Oila, mahalla, maktab hamkorlik markazi” (keyingi o’rinlarda “Markaz”deb yoziladi) mustaqil, demokratik, tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy jamoatchilik tashkiloti hisoblanib, o’z faoliyatini o’quvchi - yoshlar, ota-onalar va keng jamoatchilik ishtirokida olib boradi va shu asosda pedagoglar rahbarligida boshqariladi.

1.2. Markaz O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, amaldagi qonunchilik asosida faoliyat ko’rsatib, uning faoliyatida O’zbekiston Respublikasi «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Xalq ta’limi vazirligining 2004 yil 26 fevraldagi Hay’at majlisining qarori bilan tasdiqlangan “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi Konsepsiyasi” dasturilamal qilib belgilanadi.

1.3. Markaz umumiy o’rta ta’lim maktablarida jamoatchilik asosida faoliyat ko’rsatadi.

2. “Markaz”ning maqsad va vazifalari:

2.1.O’quvchi - yoshlar tarbiyasi yo’lida oila, maktab va mahallaning doimiy va samarali hamkorligiga erishish.

2.2. O’quvchi - yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbiga vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, kelajakka ishonch va intilish, mehnatsevarlik, bunyodkorlik, ma’rifatparvarlik kabi ezgu g’oyalar va fazilatlarni singdirish, ularda faol grajdanlik pozitsiyasi va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash orqali buzg’unchi g’oyalarga qarshi kurashchanlik salohiyatini o’stirish.

2.3. Voyaga yetmaganlar o’rtasida sodir etilishi mumkin bo’lgan noxush holatlarning oldini olish, ularning huquqiy bilimlarini boyitish, huquqiy ongi va madaniyatini o’stirish.

- 2.4. Noqobil oilalar farzandlariga hayotda to'g'ri yo'lni tanlashi, bilim olishi va kasb-hunar egallashi uchun har tomonlama ko'mak berish.
- 2.5. O'quvchi - yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, mahalla va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarning ilk va asosiy ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish.
- 2.6. Jamiyat, mahalla, oila va shaxsning uzviy birligi tamoyili asosida o'quvchi yoshlarning umumjamiyat manfaatlari yo'lidagi ijtimoiy faolligini oshirish.
- 2.7. Mahallaning bugungi institusional imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, o'quvchi - yoshlar hayoti bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bamaslahat hal etish, mavjud shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.
- 2.8. Markazni o'quvchi - yoshlar tarbiyasidagi eng samarali usul va vositalar muhokama qilinib, har tomonlama asoslanib, amaliyotga joriy etiladigan chinakam ma'rifiy maskan va tajriba maktabiga aylantirish.
- 2.9. Markaz faoliyatida o'quvchi - yoshlarning nafaqat g'oyalar va amaliy harakatlar iste'molchisi, balki ularni yaratuvchi va ro'yobga chiqaruvchi sifatidagi mavqeyini mustahkamlash, unda tom ma'nodagi izlanuvchanlik va tashabbuskorlik muhitini yaratish.
- 2.10. O'quvchi - yoshlar tarbiyasi bo'yicha davlat va nodavlat tashkilotlari bilan faol hamkorlik qilish, ularning mavjud vakolatlari va imkoniyatlaridan samarali foydalanish, bu boradagi umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatiga daxldor ishlarni muvofiqlashtirish.
- 2.11. O'quvchi - yoshlarga nisbatan "Hyech kim, hyech qachon e'tibordan chetda qolgan emas" tamoyilini joriy etish va faoliyat davomida bu masalaga doimiy ahamiyat qaratish.
- 2.12. O'quvchi – yoshlar va ularning ota – onalari uchun ta'lim – tarbiya faoliyatini takomillashtirish bo'yicha mutaxassislarni jalb qilgan holda turli sosiologik so'rovnomalar, amaliy treninglar, master-klasslar o'tkazish, psixologik maslahatlar tashkil etish.

3. Markazning boshqaruv faoliyati va ish tartibi

3.1. Hududlardagi Markazlar faoliyati Qorqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahri va viloyatlar Xalq ta'limi boshqarmalari hamda tuman xalq ta'limi bo'limlari qoshida tuzilgan ishchi guruhlar tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

3.2. Hududlardagi Markazlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh tarkibi mahalliy hokimiyat, huquq-tartibot va sog'liqni saqlash organlari O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, "Kamolot" YoIH, "Oila" ilmiy – amaliy markazi, "Ekosan" xalqaro tashkiloti, "Mahalla", "Sog'lom avlod uchun" va "Nuroniy" kabi jamg'armalarning joylardagi bo'limlari vakillaridan tashkil topadi.

3.3. Markaz umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Ma'naviyat va ma'rifat" xonasida tashkil etiladi.

3.4. Markaz faoliyatini umumiy o'rta ta'lim maktablarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari boshqaradi.

3.5. Markaz qoshidagi ishchi guruh tarkibi umumiy o'rta ta'lim maktablari ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari, psixologi, xotin-qizlar kengashi raisi, ota-onalar kengashi raisi, "Vasiylik va homiylik kengashi" raisi, mahalla fuqorolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi, "Kamolot" YoIH boshlang'ich tashkiloti, tajribali sinf rahbarlari va namunali oilalarning katta yoshli vakillari (ota-onalar)dan tashkil topadi.

3.6. Markaz faoliyatida uning Nizomda belgilangan maqsad va vazifalari doirasida tashabbus, maslahat, taklif va mulohazalari bilan maktab pedagogik jamoasi, o'quvchilar jamoasi, ota-onalar qo'mitasi a'zolari, mahalla faollari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishi mumkin.

3.7. Markaz qoshida quyidagilar tashkil etilishi mumkin:

- "Sahovatli bolalar harakati"
- "Zulfiyaxonim qizlari" klubi
- "Sport – tinchlik elchisi" klubi

- “Mahallamiz obodligi - yurt obodligi” harakati
- “Oila psixologiyasi va farzand tarbiyasi” maslahatxonasi
- “O’g’il bolalar kengashi”
- Voyaga yetmaganlar bilan ishlash guruhi
- “Mahallamiz istiqboli” kengashi
- Psixologik maslahatxona

3.8. Markazning yillik rejasida belgilangan vazifalari ijrosi bo’yicha markaz rahbari har chorakda 1 marta kengaytirilgan ota-onalar majlisida hisobot beradi.

4. Markazining huquq va vakolatlari

4.1. Nizomda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish.

4.2. Markaz faoliyati bilan bog’liq masalalarda maktab, mahalla va alohida olingan oilalar doirasida tavsiya, taklif va tashabbuslar bilan chiqish.

4.3. O’quvchi – yoshlarning ma’lumotlar bazasini yaratish va doimiy yangilab borish.

4.4. Markaz va uning a’zolari huquq va manfaatlarini himoya qilish bo’yicha qonunchilikda ko’zda tutilgan tartibda ishtirok etish.

4.5. Markaz faoliyatini obro’si haqida g’amxo’rlik qilish, uning maqsad va vazifalarini, shuningdek amalga oshirgan ishlarini targ’ib qilish.

4.6. Ta’lim–tarbiya jarayonida erishgan yutuqlaridan kelib chiqib, o’quvchilar, ota-onalar va sinf rahbarlarini moddiy va ma’naviy rag’batlantirish bo’yicha maktab va mahalla boshqaruviga tavsiyalar kiritish.

5. O’quvchilar va ularning ota-onalari haqida ma’lumotlar bankini yaratilishi tartibi

5.1. O’quvchining ma’lumot bankini yaratishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- Familiyasi, ismi va otasining ismi (to’liq);
- Tug’ilgan yili, oyi, sanasi.
- Millati.
- Yashash manzili, mahallani nomi, uy telefoni raqami.

- O'qiydigan maktabi, sinfi.
- Maktabda tutgan o'rni haqida ma'lumot.
- Maktabdagi do'stlari haqida qisqacha ma'lumot.
- Oila, maktab va mahalladagi hulqi haqida ma'lumot.
- Oilasi haqida ma'lumot.
- Qiziqishlari to'g'risida ma'lumot.
- Shug'ullanadigan sport turi, ko'rsatkichlari haqida ma'lumot.
- Sog'lig'i haqida ma'lumot.
- Jamoat ishlaridagi ishtiroki bo'yicha ma'lumot.

5.2. O'quvchining ota-onasi haqida ma'lumot bankini yaratishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- Familiyasi, ismi va otasining ismi.
- Tug'ilgan yili, oyi, sanasi.
- Millati va ijtimoiy kelib chiqishi;millati.
- Yashash manzili, mahallani nomi, uy telefoni raqami.
- Ish joyi, manzili, telefon raqami.
- Oilaning ijtimoiy – iqtisodiy holati.
- Farzandlariga bo'lgan e'tibori haqida ma'lumot.
- Qiziqishlari haqida ma'lumot.
- Maktab va mahalla bilan munosabatlari haqida ma'lumotlar.
- Jamoat ishlaridagi ishtiroki haqida ma'lumot.

6. Markazining me'yoriy hujjatlari va ularni yuritish tartibi

6.1. Markaz yillik va oylik rejalar asosida ish yuritadi;

6.2. Mazkur rejalar maktab rahbari, mahalla raisi (oqsoqol), ota-onalar qo'mitasi raisi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

6.3. Markazda yuritiladigan va saqlanadigan hujjatlar ro'yxati quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

-O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlarining ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid me'yoriy – huquqiy hujjatlari;

- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi va "Mahalla" jamg'armasi tomonidan ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid chiqarilgan Hay'at qarorlari, buyruqlar, farmoyishlar va qarorlar;
- mahalliy hokimiyat organlarining Markaz faoliyati bilan bog'liq masalalardagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari;
- ish rejaları, majlis bayonnolari va qarorlari, fuqarolar murojaatlari, yo'nalishlar bo'yicha hamkorlik va kelishuv shartnomalari, o'quvchilar va ularning ota-onalari haqida ma'lumotlar bazalari.

7. Markazning moddiy – texnik ta'minoti va faoliyatini moliyalashtirish

7.1. Markaz zaruriy jihozlar (stol, stul, kopyuter, targ'ibot stendlari, gazeta, jurnal va kitoblar) bilan ta'minlanadi.

7.2. Markaz o'z faoliyatini olib borish, ish rejalarida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlashda joylashgan umumiy o'rta ta'lim maktabi orqali amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy yordamlari hamda homiylik mablag'laridan foydalanishi mumkin.

7.3. Markaz faoliyatini boshqaruvchisi va ishchi guruhi a'zolarining oylik maoshiga Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli qaroriga muvofiq o'rnatilgan tartibda qo'shimcha haq to'lash belgilanadi.

8. Markaz faoliyati uchun zaruriy jihozlar ro'yxati*

№	Jihozlar nomi	Soni
1.	Kompyuter	1 ta
2.	Printer	1 ta
3.	Kitob javoni	1 ta
4.	Ish stoli	2 ta
5.	Stul	4 ta
6.	Markaz faoliyatini yorituvchi stend	1 ta

***Izoh:** Ushbu ro'yxatga Markazda bo'lishi zarur hisoblangan eng kam (minimum) jihozlar nomi kiritilgan bo'lib, uni mahalliy hokimiyatning, homiylarning, maktab va mahallaning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uni Markazning faoliyati uchun kerakli boshqa jihozlar va mebellar (masalan: televizor, DVD, proyektor va ekran, majlislar stoli, stullar, javonlar va h.k.) bilan ham boyitish mumkin.

"Oila-mahalla-ta'lim muassasasi"

hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar

MAJMUASI

I. Oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligini yanada kuchaytirishga qaratilgan metodologik asoslarni yaratish

II. "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" Jamoat kengashlarini shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etish

III. O'quvchi-yoshlar o'rtasida g'ayriijtimoiy harakatlarning vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish

IV. Barkamol avlodni tarbiyalashga doir ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirish va ularni mazmunan yanada takomillashtirish

T/r	Tadbirlar	Mas'ullar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati
I. OILA, MAHALLA, TA'LIM MUASSASALARI HAMKORLIGINI YANADA KUCHAYTIRISHGA QARATILGAN METODOLOGIK ASOSLARNI YARATISH				
1.	Ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o'rni, majburiyati, mas'uliyati va	"Oila" ilmiy-amaliy markazi, Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy- amaliy	1. Uslubiy qo'llanma va tavsiyalar loyihasini tayyorlash. 2. Tayyorlangan	2012 yil 20 iyul 2012 yil 1 avgust 2012 yil

	farzandlar bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga doir uslubiy qo'llanma va tavsiyalarni tayyorlash, joylarga yetkazish.	markazi, "Mahalla" Fondi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi (RBIMM), "Kelajak ovozi" YoTM, "Kamolot" YoIH, manfaatdor vazirliklar va idoralar	loyihalarni o'rnatilgan tartibda kelishuvdan o'tkazish. 3. Chop etish va joylarga taqsimot asosida yetkazish.	30 avgust
2.	Umumiy o'rta ta'lim maktablari 1 - 4-sinflarida "Bola tarbiyasi - kelajak mevasi", 5 - 7-sinflarida "Ilm ol - hunar o'rgan!", 8 - 9-sinflarida va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari 1-bosqichlarida "Tanlagan kasbing - sening kelajaging!" hamda 2 - 3-bosqichlarida "Yetuk mutaxassis - kelajak mevasi!" mavzularida "Otalar majlisi"ni o'tkazish tartibini ishlab chiqish va joriy	Xalq ta'limi vazirligi (XTV), O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi (O'MKHTM), "Mahalla" Fondi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Kamolot" YoIH, manfaatdor vazirliklar va idoralar	1. Tanlangan mavzular bo'yicha "Otalar majlisi"ni o'tkazish tartibi loyihalarini tayyorlash. 2. O'rnatilgan tartibda tasdiqlash va ijroga yo'naltirish.	2012 yil 1 avgust 2012 yil sentyabr

	etish.			
3.	Yoshlarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, pedagoglar, psixologlar va huquqshunoslar hamkorligida o'quvchilarning huquqiy bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan huquqiy axborotlarni o'z ichiga olgan buklet, ma'lumotnoma va tarqatma materiallar ishlab chiqish va joylarga yetkazish.	XTV, OO'MTV, O'MKHTM, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, Davlat boshqaruvi akademiyasi (DBA), RBIMM, "Kelajak ovozi" YoTM, "Oila" ilmiy-amaliy markazi	Huquqiy bilimlarni oshirishga doir buklet, ma'lumotnoma va tarqatma materiallarni ishlab chiqish va joylarga yetkazish.	2012 yil 30 avgust
4.	Qizlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, salomatlik masalalari va balog'at davri o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida "Orasta qiz yon daftarchasi" nomli	"Oila" ilmiy-amaliy markazi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi (SSV), "Sog'lom avlod uchun" xalqaro Fondi, "Kamolot" YoIH, Adliya vazirligi, XTV, OO'MTV,	1. "Orasta qiz yon daftarchasi" nomli qo'llanma loyihasini tayyorlash. 2. Manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan kelishish, chop etib joylarga yetkazish.	2012 yil 20 avgust 2012 yil sentyabrda boshlab

	qo'llanmani ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.	O'MKHTM		
II. "OILA-MAHALLA-TA'LIM MUASSASASI" JAMOAT KENGASHLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH				
5.	"Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashlarini tuzish.	XTV, OO'MTV, O'MKHTM, IIV, SSV, "Mahalla" Fondi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Kamolot" YoIH, "Oila" ilmiy-amaliy markazi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy- amaliy markazi, "Kelajak ovozi" YoTM, QR Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzurida "Oila- mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashini tuzish. 2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari huzurida "Oila- mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi hududiy jamoat kengashlarini tuzish.	2012 yil iyul
6.	Jamoat kengashi, ota- onalar tomonidan ta'lim	"Mahalla" Fondi, XTV, OO'MTV, O'MKHTM, Xotin-	1. Ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya sifatini	2012 yil 30 avgust

	muassasalaridagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish va ularni yanada takomillashtirishga doir tadbirlarni amalga oshirishdagi faolligini oshirish.	qizlar qo'mitasi, "Kamolot" YoIH "Oila" ilmiy-amaliy markazi, manfaatdor vazirliklar va idoralar	tubdan o'rganish. 2. O'rganish natijalariga ko'ra ta'lim muassasalaridan takliflar olish va ishlarni takomillashtirish choralarini ko'rish. 3. Ota-onalarning ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga doir tadbirlarni amalga oshirishda faol qatnashishini ta'minlash.	2012 yil sentyabr muntazam ravishda
7.	Ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, o'quvchilar davomatini yaxshilash bilan bog'liq masalalarda Jamoat kengashi va mahallaning o'rnini kuchaytirish.	XTV, OO'MTV, O'MKHTM, IIV, "Mahalla" Fondi, "Oila" ilmiy-amaliy markazi, "Kamolot" YoIH	1. Ta'lim muassasalari rahbarlari, Jamoat kengashi, mahalla va ota-onalar hamkorligida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish yo'llari va o'quvchilarning darsga qatnash davomatini uzviy tahlil qilib borish. 2. Dars qoldirgan,	2012 yil sentyabr an boshlab muntazam ravishda

			o'qishga qatnamaydigan o'quvchilar, ularning ota-onalari bilan tushuntirish va sog'lomlashtirish ishlarini olib borish.	
8.	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi yoshlar bilan ishlash komissiyalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish.	"Mahalla" Fondi, "Kamolot" YoIH, OO'MTV, XTV, O'MKHTM, Madaniyat va sport ishlari vazirligi	1. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi yoshlar bilan ishlash komissiyasi faoliyatini tanqidiy-tahliliy o'rganish, vazifalarini aniq belgilash va samaradorligini yanada oshirish. 2. Tashabbuskor yoshlarni ta'lim-tarbiya masalalarini o'rganishga jalb qilish va hisobotlarini eshitishni yo'lga qo'yish.	2012 yil 20 iyuldan muntazam ravishda har chorakda
9.	Ta'lim tizimidagi yutuqlar va islohotlar haqida ota-onalarning keng ma'lumotga ega bo'lishlarini	XTV, O'MKHTM, "Mahalla" Fondi, "Oila" ilmiy-amaliy markazi, "Kamolot" YoIH,	1. "Ota-onalar universiteti" faoliyati samaradorligini oshirish choralari belgilash.	2012 yil 20 avgust 2012 yil sentyabrda

	ta'minlash maqsadida "Ota-onalar universiteti" faoliyatini kuchaytirish.	QR Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	2. "Ota-onalar universiteti" faoliyatiga oid hisobotlarni eshitishni yo'lga qo'yish.	an boshlab muntazam ravishda
10.	Ta'lim muassasalari va mahallalarda "Oila - muqaddas tushuncha", "Oilaviy an'analar", "Mahalla va oila ma'naviyatining mustahkamligi", "Ota va ona - oila tayanchi", "Oilada sharqona sadoqat" mavzularida suhbatlar va savol-javob kechalarini tashkil etish.	"Mahalla" Fondi, XTV, OO'MTV, O'MKHTM "Nuroniyyat" jamg'armasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, RBIMM, "Kelajak ovozi" YoTM, "Kamolot" YoIH, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, "Oila" ilmiy-amaliy markazi	1. Soha mutaxassislari, malakali professor-o'qituvchilar, oliy ta'lim muassasalarining iqtidorli talabalari hamda namunali oilalar vakillaridan iborat targ'ibot guruhlarini shakllantirish. 2. Targ'ibot guruhlari uchun o'quv seminari tashkil qilish. Ularni zarur qo'llanma va ma'ruza matnlari bilan ta'minlash. 3. Targ'ibot guruhlari a'zolarini hududlar bo'yicha taqsimlash va targ'ibot ishlarini tashkil etish. 4. Tadbirlarni OAVlarda keng	2012 yil 30 iyun 2012 yil 30 iyul 2012 yil avgust muntazam ravishda

			yoritish.	
III. O'QUVCHI-YOSHLAR O'RTASIDA G'AYRIIJTIMOIY HARAKATLARNING VUJUDGA KELISH SABABLARI VA SHART-SHAROITLARINI O'RGANISH, ULARNI BARTARAF ETISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLARNI BELGILASH VA AMALGA OSHIRISH				
11.	Mahallalarda noqobil, notinch oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi hamda ularga har tomonlama ijtimoiy ko'maklashish ko'lamini kengaytirish.	"Mahalla" Fondi, XTV, O'MKHTM, IIV, Xotin-qizlar qo'mitasi, RBIMM, "Kamolot" YoIH, "Oila" ilmiy-amaliy markazi	1. Mahallalarda faol, el orasida hurmat qozongan ziyoli insonlarni hamda tegishli idoralar vakillarini jalb qilgan holda oilalarni o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash. 2. Muammolarning yechimini topishda ko'maklashish hamda notinch oila farzandlarini o'quv jarayoniga to'liq jalb etish choralari ko'rish.	2012 yil 30 avgust muntazam ravishda
12.	O'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va ularni qiziqishlari bo'yicha kasb-	XTV, O'MKHTM, "Mahalla" Fondi, Xotin-qizlar qo'mitasi, RBIMM, "Kelajak ovozi" YoTM, "Kamolot" YoIH,	1. Mahallalar va ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlar uchun tashkil etilgan fan to'garaklari, sport seksiyalari faoliyatini	2012 yil sentyabr dan boshlab muntazam

	hunarga yo'naltirish.	SSV, Davlat soliq qo'mitasi, IIV, QR Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	o'rganish, tarmog'ini kengaytirish orqali ommaviylikni ta'minlash. 2. O'quvchi- yoshlarni, ayniqsa qizlarni hududdagi usta-hunarmandlarga biriktirish, va ularni kasb-hunarga o'rgatish ishlarini takomillashtirish. 3. O'quvchi-yoshlar tomonidan to'garaklarda tayyorlangan mahsulotlarning ko'rgazma savdosini tashkil etish, shu orqali ularda tadbirkorlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish. 4. To'garaklarda egallangan bilim va ko'nikmalar asosida ularni kasb-hunar ta'limi muassasalariga jalb etish tizimini	ravishda
--	----------------------------------	---	---	-----------------

			mustahkamlash.	
13.	Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik, jinoyatchilik, huquqbuzarlik yoki boshqa noijtimoiy harakatlar sodir etilishining oldini olish bo'yicha keng tushuntirish ishlarini amalga oshirish.	XTV, O'MKHTM, IIV, Adliya vazirligi, RBIMM, "Mahalla" Fondi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Kamolot" YoIH, QR Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	1. O'quvchilar o'rtasida huquqbuzarlik, jinoyatchilik va giyohvandlikning oldini olish borasida profilaktik suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazish jadvalini ishlab chiqish hamda ijroga yo'naltirish. 2. Profilaktik tadbirlarga Jamoat kengashi, tegishli idoralar vakillari, otionalarni jalb etish. 3. Tadbirlarning natijaviyligini ta'minlash bo'yicha monitoring yuritish.	2012 yil 20 avgust 2012 yil sentyabr an boshlab muntazam ravishda
14.	Dars vaqtida maktabga bormasdan bemaqsad yurgan, masjidlariga qatnayotgan, bozorlarda turli yumushlar hamda jamoat	XTV, O'MKHTM, IIV, "Mahalla" Fondi, "Kamolot" YoIH, Xotin-qizlar qo'mitasi, QR Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	1. Vazirlik va idoralar vakillaridan iborat Ishchi guruhni tuzish. 2. Reyd o'tkaziladigan manzillarni aniqlash va Ishchi guruhga qo'shimcha jamoatchilik	2012 yil sentyabr muntazam ravishda reja

	transportlarida chipta sotish bilan shug'ullanayotgan o'quvchilarni aniqlash va ularni o'qishga qaytarish maqsadida "O'quvchi" reydlarini o'tkazish.		vakillarini jalb etish. 3. Reydda aniqlanib ro'yxatga olingan o'quvchi-yoshlarni ta'limga qaytarish choralarini ko'rish, doimiy monitoring yuritish.	asosida
15.	O'quvchi- yoshlarning dars va tungi vaqtlarda "Internet-kafe"lar va "Kompyuter klublari"da bo'lishi, ma'naviy-axloqiy buzuqlikni targ'ib etuvchi saytlarga kirishi holatlarini aniqlash va ularga barham berish bo'yicha vakolatli tashkilotlar bilan hamkorlikda reydlar tashkil etish.	O'zAAA, "Mahalla" Fondi, XTV, O'MKHTM, IIV, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Kamolot" YoIH QR Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	1. Vazirlik va idoralar vakillaridan iborat Ishchi guruhni tuzish. 2. Reyd o'tkaziladigan manzillarni hamda dars vaqtida maktabga bormasdan "Internet- kafe" va "Kompyuter klublari"da bemaqsad yurgan o'quvchilarni aniqlash, ularni o'qishga qaytarish choralarini ko'rish. 3. Reyd vaqtida aniqlangan salbiy holatlar bo'yicha ularning rahbarlariga nisbatan qonunda belgilangan tartibda	2012 yil sentyabrd an boshlab muntaza m ravishda reyd kuni

			keskin choralar ko'rish.	
16.	Erta turmush qurish hamda yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarning oldini olish, ularning inson sog'lig'iga zararlari, huquqiy javobgarliklari mavzularida mahallalarda ota- onalar o'rtasida mutaxassislar ishtirokida tushuntirish ishlarini amalga oshirish.	Xotin-qizlar qo'mitasi, "Mahalla" Fondi, "Kamolot" YoIH, O'zbekiston musulmonlar idorasi	1. Erta turmush qurish holatlarining oldini olishga qaratilgan uchrashuv, suhbat va tushuntirish ishlarini tashkil etish bo'yicha hamkorlik jadvalini ishlab chiqish va amalga oshirish. 2. Voyaga yetmagan qizlar o'rtasida aniqlangan homiladorlik holatlari yuzasidan qizlar va ota-onalar ishtirokida yakka tartibda tushuntirish ishlarini amalga oshirish.	2012 yil sentyabrd an boshlab muntaza m ravishda
17.	O'quvchi-yoshlar orasida turli milliy mentalitetimizga zid bo'lgan salbiy holatlarning oldini olish bo'yicha hamda profilaktik nazoratda turuvchi o'quvchilarni tarbiyalashda ota-	"Mahalla" Fondi, IIV, XTV, O'MKHTM, Xotin-qizlar qo'mitasi, RBIMM, "Kamolot" YoIH Adliya vazirligi, O'zbekiston musulmonlar idorasi, QR Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	1. Turli milliy mentalitetimizga zid bo'lgan salbiy holatlarning oldini olish. 2. Ichki ishlar profilaktik hisobiga va ta'lim muassasalarining ichki nazoratiga	2012 yil 1 iyuldan boshlab muntaza m ravishda

	onalar, mahalla, huquq-tartibot idoralari davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish.		olingan o'quvchi-yoshlar bilan yakka yoki ommaviy tarzda maqsadli ishlarni olib borish. 3. Ichki ishlar profilaktik nazoratiga va ta'lim muassasalarining ichki nazoratiga olingan o'quvchi-yoshlarni to'garaklarga jalb etish, ularga mas'ullarni biriktirish. 4. Ta'lim-tarbiya jarayonida ijobiy o'zgarishlarga erishgan o'quvchi-yoshlarni ro'yxatdan chiqarish. 5. Farzandlar tarbiyasiga e'tiborsiz ota-onalarga nisbatan qonunda belgilangan tartibda intizomiy choralar qo'llash.	
18.	O'quvchi-yoshlarning zararli odatlar yo'liga	XTV, O'MKHTM, OO'MTV, "Mahalla" Fondi, Xotin-qizlar	1. Ta'lim muassasalariga yaqin hududlarda alkogolli	2012 yil 1 iyuldan boshlab

	kirishiga sabab bo'layotgan omillarga qarshi manzilli profilaktik tadbirlarni amalga oshirish.	qo'mitasi, RBIMM, "Kamolot" YoIH	va tamaki mahsulotlari sotilishining oldini olish bo'yicha Jamoatchilik kengashi nazoratini kuchaytirish. 2. O'quvchi-yoshlar, pedagog-xodimlar va ota-onalar o'rtasida tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarning zarari haqidagi tushunchalari va ularga munosabatini o'rganish bo'yicha so'rovnoma o'tkazish. 3. O'quvchilar o'rtasida tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarning zarari, ular bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularning og'ir asoratlari to'g'risida mutaxassislar ishtirokida davra suhbatlari va	2012 yil sentyabr Muntazam ravishda jadval asosida
--	---	---	--	--

			uchrashuvlar tashkil etish.	
IV. BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHGA DOIR MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA ULARNI MAZMUNAN YANADA TAKOMILLASHTIRISH				
19.	"Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarining mazmun-mohiyatini keng targ'ib etish.	"Mahalla" Fondi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi "Kamolot" YoIH , XTV, OO'MTV, O'MKHTM	1. Jamoat kengashi ishtirokida ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoniga oid masalalarni muhokama etishni yo'lga qo'yish. 2. Mahallalarda jamoatchilik asosida "Ota-onalar universiteti"ni tashkil etish. 3. Yoshlarni hayotga ruhiy-ma'naviy jihatdan to'liq tayyorlash, ularda hayotga mas'uliyat hissini uyg'otish yuzasidan ibratli oilalar bilan uchrashuvlar va davra suhbatlari o'tkazish.	2012 yil muntazam ravishda alohida reja asosida muntazam ravishda
20.	Yosh avlodga xalqimizning ko'p asrlar davomida	Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Respublika	1. Soha mutaxassislari va jamoatchilik vakillaridan iborat	2012 yil sentyabrdan

	shakllangan qadriyatlarini, ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish.	"Oila" ilmiy-amaliy markazi, XTV, OO'MTV, O'MKHTM, "Mahalla" Fondi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Kamolot" YoIH	Targ'ibot guruhini shakllantirish. 2. Milliy qadriyat va an'analarimizni, ibratli urf-odatlarimizni targ'ib etishga doir mavzularda uchrashuv, davra suhbatlari va seminarlar tashkil etish.	boshlab rejaga muvofiq
21.	"Yoshlar ma'naviy olamini boyitishda adabiyot va san'atning o'rni" mavzuida turkum ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish.	O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, "Mahalla" Fondi, O'zFA Til va adabiyot instituti, "Kamolot" YoIH, XTV, OO'MTV, O'MKHTM	1. Yozuvchi, shoir, olim, san'atkor va yosh qalamkashlardan iborat Ishchi guruh tuzish. 2. O'quvchi-yoshlarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini orttirish, kutubxonalarning kitob fondini boyitish maqsadida "Maktab-mahalla, oila-jamoatchilik" hamkorligida kitoblar ko'rgazmasini o'tkazish. 3. "Birinchi kitobim" yo'nalishida yosh	2012 yil sentyabr muntazam ravishda rejaga muvofiq

			qalamkashlarning kitoblari taqdimotini tashkil etish.	
22.	O'quvchi-yoshlarni g'oyaviy tahdid va past saviyali "ommaviy madaniyat" va boshqa turdagi yot g'oyalarning zararli ta'siridan himoya qilishga qaratilgan ma'rifiy tadbirlar tashkil etish.	Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, XTV, OO'MTV, O'MKHTM, SSV, "Kamolot" YoIH, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Mahalla" Fondi	1. Soha mutaxassislari tomonidan mahalla oqsoqollarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilari o'rtasida "Missionerlik va prozelitizmning salbiy oqibatlar", "Din va ma'naviyat", Xurofotga qarshi kurashda ayollarning o'rni" mavzularida suhbatlar, muloqotlar tashkil etish. 2. Ta'lim muassasalarida "Yoshlarni g'oyaviy tahdidlar va past saviyali "ommaviy madaniyat"ning halokatli ta'siridan himoya qilishga qaratilgan seminarlar, savol va javoblar,	2012 yil sentyabrda an boshlab muntazam ravishda rejaga muvofiq

			ijodiy kecha, davra suhbatlarini tashkil etish.	
23.	"Qudratimiz - birlik va hamjihatlikda" mavzuida madaniy tadbirlar tashkil etish.	Baynalmilal madaniyat markazi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, MTRK, "Mahalla" Fondi, "Kamolot" YoIH	Respublikamizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillari ishtirokida joylarda do'stlik festivallari, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, turli tildagi she'rxonlik kechalarini tashkil etish.	2012 yil iyuldan boshlab muntazam ravishda reja asosida
24.	Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligida amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritish.	MTRK, "O'zbekkino" Milliy agentligi, XTV, OO'MTV, O'MKHTM, "Mahalla" Fondi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Kamolot" YoIH, QR Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	1. Amalga oshirilayotgan ishlarni televideniye, radio va matbuot orqali keng yoritish. 2. Manfaatdor vazirliklar va idoralarning o'z tarmoq gazeta va jurnallarida va maxsus veb-saytlari orqali yoritish. 3. Hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar doirasida namunaviy va ilg'or	2012 yil iyundan boshlab muntazam ravishda

			ish tajribalarini ommalashtirish va ularning monitoringini yuritish.	
25.	"Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi bajarilishi bo'yicha axborot tayyorlash va keyingi yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.	XTV, OO'MTV, O'MKHTM, IIV, SSV, "Mahalla" Fondi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Kamolot" YoIH, "Oila" ilmiy-amaliy markazi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, "Kelajak ovozi" YoTM, QR Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	1. Amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligini o'rganish, tanqidiy tahlil qilish hamda ularning kelgusida yanada samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish. 2. 2013 yilga mo'ljallangan "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va amalga oshirish.	2013 yil 25 yanvarga qadar 2013 yil 1 fevralga qadar

Izoh: belgilangan tadbirlar ijrosi bilan bog'liq xarajatlar mas'ul ijrochi tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan qoplanadi.

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2012 yil, 25-son, 273-modda

Kirish	3
--------------	---

I-BOB. "O'quvchilarni tarbiyalashda oila, maxalla, maktab xamkorligi"

Konsepsiyasi

1.1. "O'quvchilarni tarbiyalashda oila, maxalla, maktab xamkorligi" Konsepsiyasi haqida umumiy tushunchalar.....	9
1.2. "O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida oilaning vazifalari.....	12
1.3. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida mahallaning vazifalari.....	14
1.4. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida maktabning vazifalari.....	16

II-BOB. Oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish tamoyillari, bosqichlari va mexanizmi

2.1. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari.....	18
2.2. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish mexanizmi.....	20
2.3. O'quvchilarni kasbga yo'llashda oila va maktab hamkorligini o'rganish..	23
2.4. «Oila, mahalla, maktab hamkorligi samaradorligini oshirish» bo'yicha tavsiya.....	25
Xulosa.....	34
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	37
Ilovalar.....	40